

ISROIL-FALASTIN MUNOSABATLARINI YECHISH VARIANTLARI

Karimov Baxtiyor Raxmanovich

Falsafa fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi,

karimov.bahtiyor@yahoo.com

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining dolzarb muammosi Isroil-Falastin munosabatlari muammosining mumkin bo'lgan echimlarini izlashdir. Ushbu ziddiyatli munosabatlar xalqaro munosabatlarning butun zamonaviy tizimiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Biz ushbu munosabatlarning asosiy sub'ektlarining pozitsiyalarini tahlil qilish asosida ushbu muammoning turli xil echimlari tizimini topishga harakat qilamiz.

1) Falastin millati dunyoning boshqa barcha millatlari bilan tenghuquqli millat bo'lishni xohlaydi. Shuning uchun, boshqa barcha millatlar o'z milliy yerlarini boshqa millatga, shu jumladan yahudiy millatiga berishni istamasalar, falastin millati ham o'zining etnik milliy erini boshqa millatga, xususan, yahudiy millatiga berishni xohlamayapdi. Falastin xalqi o'z yerlarini boshqa millatga, jumladan yahudiy millatiga, bermaslik huquqiga ega. Falastin millati butun Falastin hududida o'zining suveren mustaqil Falastin davlatini yaratishga intilmoqda. Shuning uchun u Falastin yerlarini tortib olmoqchi bo'layotgan va Falastin millatini qaram qilish, quvib chiqarish, yoki yo'q qilish bilan shug'illanayotgan sionistik bosqinchilardan o'z yurtini ozod qilish uchun kurashmoqda.

2) Isroil sionistlari butun Falastin hududini egallab olishni va falastin millatini turli mamlakatlarga majburiy emigratsiyaga quvib chiqarishni, ular emigratsiyaga borgan mamlakatlarda assimilyatsiya bo'lishlarini, falastin millatining yagona bir millat sifatida mavjud bo'lmay, yo'q bo'lib ketishini rejalashtirmoqda. Sionistlar shu usul bilan falastin millati o'z erining unga qaytarilishini da'vo qilmaydigan darajada yo'q bo'lishiga erishmoqchi. Shunday qilib, sionistlarning rejalariga ko'ra, yahudiy millati "yersiz millat" holatidan yerni falastin millatidan tortib olib, yerga ega millatga aylanadi, ammo

yersiz yangi millat – falastin millati vaqtincha paydo bo‘ladi, lekin u boshqa millatlar tarkibida assimilyatsiya bo‘lib, yo‘q bo‘lib ketadi. Voqealar rivojining ushbu versiyasida sionistik shior: “Yersiz millatga, millatsiz yer!” (Teodor Gerzl) amalga oshirilgan bo‘lar edi.

3) Yahudiy millatini qadimgi zamonda yeridan quvib chiqarishni amalga oshirgan Rim imperiyasida rimliklar va yunonlar yetakchi rol o‘ynagan va Yevropaning ko‘p millatlari ularning avlodlaridir. Yahudiy millatining katta qismini yo‘q qilishni amalga oshirganlar Yevropa fashistlari va antisemitlaridir. Yevropa xalqlari va ularning ajdodlari yahudiy millatiga nisbatan ushbu quvgin va qirginlarning asosiy qismini amalga oshirgan bo‘lsalarda ular yahudiy millati uchun milliy hududining bir qismini ajratishni istamaydi.

4) Rossiya SSSR shaklida Yahudiy avtonom viloyatini yaratdi va shu bilan yahudiy millati uchun o‘zi bosib olgan Sibirning bir qismini ajratib berdi, ya‘ni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan xalqlarning etnik hududlarining bir qismini, Sibir tubjoy xalqlari hududlarining bir qismini ajratib berdi. Lekin yahudiy millatining o‘zi u erga ko‘chib o‘tishni xohlamadi. Rossiya bu ishni ana shu tub xalqlarning roziligini aniqlamasdan amalga oshirdi, ya‘ni shu ma‘noda Rossiya bu rus millatiniki bo‘lmagan hududni yahudiy millatiga qonuniy ravishda ajratmagan. Rus millati ham boshqa Yevropa xalqlari kabi rus etnik hududini yahudiy millatiga ajratib berishni istamagan va hozir ham berishni xohlamaydi.

5) Mojaro ishtirokchilarining har biri, Isroil ham, Falastin ham, Falastin hududiga o‘zining etnik va davlat hududi sifatida to‘liq egalik qilishni, u yerda o‘z milliy davlatini qurishni istaydi va davlat tili sifatida o‘z milliy tili ishlatilishini xohlaydi. Mojaroning mohiyati shundan iborat.

6) Tarixiy Falastin hududini taxminan teng ikki qismga bo‘lish y‘oli bilan, ushbu hududlarda ikki suveren davlat, mustaqil Isroil va mustaqil Falastin davlatlarining tuzilishi va parallel ravishda mavjud bo‘lishi variantini ikki tomon ham rad etmoqda. Bu variantni har ikki tomonning radikal qanotlari qat‘iyan rad etmoqda, garchi ular BMT va dunyoning aksariyat davlatlari hozirda ushbu ikki davlat variantini maqsadga muvofiq deb hisoblayotganligini va ushbu variantni amalga oshirishni talab qilayotganligini

bilishsa ham. Afsuski, Insoniyat ushbu ikki tomon ham rad etayotgan variantni talab qilib turib, Isroil-Falastin mojarosi muammosini hal qilishning boshqa, muqobil variantlarini hali BMT orqali faol ko'rib chiqmayapti, garchi bu mojaro insoniyat uchun halokatli oqibatlariga olib keladigan jahon yadro urushiga aylanishi mumkin.

7) Bir qator mualliflar 1948 yilda BMT tomonidan Isroil va Falastin arab davlati uchun ajratilgan hududni hududiy jihatdan o'z ichiga olgan yagona ko'p millatli va ko'p dinli Falastin demokratik davlatini yaratish variantini taklif qilmoqdalar. Aholi tarkibi jihatidan bu davlat zamonaviy Isroil va G'azo sektorining butun aholisini, shuningdek, 1948 yildan beri o'z hududlaridan quvilgan barcha falastinliklar va ularning avlodlarini o'z ichiga oladi, ularga ushbu birlashgan Falastin davlatiga qaytish imkoniyati beriladi. Bu variant Isroil davlati rahbariyati, shuningdek, ko'pchilik falastinliklar tomonidan rad etilmoqda, chunki yahudiylar va falastinliklar o'rtasidagi mavjud o'zaro dushmanlik munosabatlari tufayli bu imkonsiz deb hisoblanadi. Ushbu loyihani amalga oshirish, shuningdek, ushbu birlashgan davlatda ikkita davlat tili – arab va ibroniy tillari mavjud bo'lishi bilan murakkablashadi, chunki bu ikki tilni birlashgan Falastin davlatining barcha aholisi bilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun bu davlat na falastinliklar, na yahudiylar uchun milliy davlat bo'lmaydi, vaholanki bu ikki millatning har biri o'z milliy davlati bo'lishini xohlaydi. Bu variantni hozir ikkala tomon ham rad etmoqda va shuning uchun uni hozirgi davrda amalga oshirish imkonsizdir.

8) Bunday vaziyatda Isroil-Falastin munosabatlari muammosini hal qilishning yana bir variantini ko'rib chiqish mumkin: agar dunyoning muayyan davlati va muayyan millati BMT vositasida faoliyat yurituvchi Insoniyatga o'z davlati hududining bir qismini, etnik milliy hududining bir qismini Insoniyat tomonidan BMT orqali yahudiy millati uchun milliy davlat yaratish maqsadida bersa (yoki sotsa). Bu masala ushbu davlat va ushbu millat fuqarolarining referendumini, shuningdek, yahudiy millatining referendumini orqali hal qilinishi kerak. Shunga o'xshash qarorlar dunyoning bir qancha davlatlari va millatlari tomonidan parallel ravishda qabul qilinishi ham mumkin va ular birgalikda harakat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, Insoniyat BMT Bosh Assambleyasida ushbu masalani ko'rib chiqishi va ushbu loyihani amalga oshirish

bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin. Ushbu loyihani amalga oshirish zarurati to'g'risida qaror qabul qilinsa, BMT uni amalga oshirishni muvofiqlashtirishi mumkin.

9) Agar 6, 7 va 8-bandlarda ko'rsatilgan variantlar bo'yicha muammoni hal qilishning iloji bo'lmasa, unda bu vaziyatda ushbu muammoni hal qilishning yana bir varianti – bu BMT tomonidan muvofiqlashtirilgan Insoniyatning siyosiy, moliyaviy va sanoat sa'y-harakatlari asosida Insoniyatga tegishli xalqaro suvlarda, Jahon okeanida Insoniyat tomonidan sun'iy orol yaratilishi va ushbu orolda yahudiy millatining milliy davlati yaratilishi variantidir. Yahudiy millati referendum orqali, hamda BMT va dunyoning boshqa davlatlari bilan kelishilgan holda, ushbu orolning joylashuvi va uning konstruktsiyasini tanlashi mumkin bo'ladi. Agar muayyan davlat o'zining hududiy suvlari, qo'shni zonasi, eksklyuziv iqtisodiy zonasi va shelfining bir qismini ushbu maqsadlar uchun BMTga berishga (sotishga) rozi bo'lsa, unda orol emas, balki yarim orol yaratish mumkin bo'ladi. Orol (yarim orol) hududi va aholisining zichligi taxminan Singapur hududi va aholisi zichligiga teng bo'lishi mumkin.

10) Insoniyat, shuningdek, juda kop fojialarni boshidan kechirgan Falastin millatiga Falastin hududida o'z milliy davlatini qurishda yordam berishi kerak.

11) Falastindagi barcha dinlarning muqaddas joylariga tashrif buyurish, ularni ziyorat qilish uchun imkoniyatlar BMT tomonidan maxsus rejim orqali ta'minlanishi kerak bo'ladi.

Insoniyat BMTning faol harakatlari orqali Isroil-Falastin munosabatlari muammolarini yechishning barcha variantlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlashi va mojaroning halokatli oqibatlarining oldini oladigan oqilona yechim topishi kerak.